

ARAB TILI ILM-FAN, TA'LIM VA MADANIYAT SIFATIDA MARKAZIY OSIYODAGI O'RNI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-25-21-26>

Shamsiyev Saidakbar

JIDU Xalqaro munosabatlar fakulteti

2-bosqich talabasi

Ilmiy maslahatchi: Nigora Azimova Sabitovna

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab madaniyati, ilm fani taraqqiyoti va uning Markaziy Osiyoga ta'siri, shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston va Arab davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar xususida tahlil qilinadi. Arab madaniyatining O'zbekistondagi o'rni va uning yaqin kelajakda ta'siri va istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Arab tili, Bayt ul-Hikma, Mir Arab madrasasi, EXPO korgazmasi. Arab madaniyati.

THE PLACE OF THE ARABIC LANGUAGE IN SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE IN CENTRAL ASIA

Shamsiyev Saidakbar

UWED, Faculty of International Relations

2nd year student

Supervisor: Nigora Azimova Sabitovna

Teacher of the Department of Oriental Languages

Abstract: This article analyzes the development of Arabic culture, science and its influence on Central Asia, as well as the cultural ties of Uzbekistan with Arab countries today. The role of Arabic culture in Uzbekistan, its influence and prospects for the near future are discussed.

Keywords: Arabic language, Bayt ul-Hikma, Mir Arab madrasah, EXPO exhibition. Arabic culture.

АРАБСКИЙ ЯЗЫК КАК НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ И КУЛЬТУРА РАСПОЛОЖЕНИЕ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

УМЭД, Факультет международных отношений

Студент 2 курса Шамсиев Саидакбар

Руководитель:

Преподаватель кафедры восточных языков

Низора Азимова Сабитовна

Аннотация: В данной статье анализируется развитие арабской культуры, науки и ее влияние на Центральную Азию, а также культурные связи Узбекистана с арабскими странами сегодня. Обсуждается роль арабской культуры в Узбекистане, ее влияние и перспективы в ближайшем будущем.

Ключевые слова: арабский язык, Байт ул-Хикма, медресе Мир Араб, выставка ЭКСПО. Арабская культура.

Arab tili tarix davomida nafaqat diniy til sifatida, balki ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida ham jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Islom dinining yoyilishi bilan birga arab tili keng geografik hududlarga, Shimoliy Afrika, Andalusiya, Eron, Hindiston va Markaziy Osiyoga kirib bordi va u yerda ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosiy vositasiga aylandi. Xususan, VIII–XII asrlarda arab tili ilm-fan va falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix va adabiyot sohalarida yozilgan asarlarning asosiy tili sifatida e'tirof etilgan. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar arab tilining bu yuksak ilmiy-ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanib, o'z ilm-fan va madaniyatini rivojlantirgan. Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar o'z asarlarini arab tilida yozgan, ularning ilmiy merosi esa butun musulmon olami va undan tashqarida ham keng tarqalgan. Bu jarayonlar natijasida arab tili Markaziy Osiyoda ilmiy fikr, ta'lim va madaniy aloqalarning asosiy omiliga aylangan. Mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda ayniqsa dolzarb bo'lib, arab tilining tarixiy va zamonaviy ahamiyatini, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari bilan arab dunyosi o'rtasidagi madaniy uzviylikni chuqur anglash imkonini beradi. Shu sababli, ushbu ishda arab tilining Markaziy Osiyodagi ilmiy markazlar faoliyatidagi roli, ta'lim tili sifatidagi mavqei va madaniy qadriyatlar almashinuviga qo'shgan hissasi tahlil etiladi.

Arab tili dastlab diniy til sifatida islom dini bilan birga Markaziy Osiyoga kirib keldi. Qur'on tilining arabcha bo'lishi va shariat ilmlarining o'rganilishi arab

tilini ilmiy muhitga olib kirdi. Biroq vaqt o'tishi bilan arab tili faqat diniy emas, balki ilmiy fanlar, falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqa sohalarda ham asosiy tadqiqot tiliga aylandi. Bu holat asosan Bag'doddagi "Bayt ul-Hikma" (Donishmandlar uyi) faoliyati bilan bog'liq. Bu markazda yunon va hind tilidagi asarlar arab tiliga tarjima qilingan. Arab tilining ilmiy tildagi mavqei tufayli Markaziy Osiyo olimlari o'z asarlarini arab tilida yozgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa ko'plab olimlarning asarlari arab tilida yozilgan. Bu esa ularning asarlarini nafaqat mintaqada, balki butun musulmon olamida o'qilishi va tarqalishini ta'minladi. Arab tilining keng tarqalishi va ilmiy tilga aylanishi Markaziy Osiyodagi ilmiy markazlarning shakllanishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv, Farg'ona kabi shaharlarda madrasalar va kutubxonalar faoliyat yuritdi. Bu ilmiy muassasalarda asosan arab tilida ta'lim berilgan. Shuningdek, xalqaro ilmiy aloqalar ham arab tilida olib borilgan.

Xususan, Xorazmda faoliyat yuritgan Abu Rayhon Beruniy arab tilida 150 dan ortiq asarlar yozgan. Uning "Hindiston haqida kitob", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari nafaqat tarix, balki geodeziya, astronomiya va etnografiyaga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Beruniyning ilmiy uslubi, aniq kuzatishlarga tayangan empirik metodologiyasi arab tilida ifodalanib, ilmiy an'analarning kuchayishiga xizmat qilgan. Shuningdek, Abu Ali Ibn Sino ham o'zining "Tib qonunlari" asarini arab tilida yozgan. Bu asar bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida ham asosiy tibbiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Arab tili bu yerda ilm-fanning xalqaro tiliga aylanganini ko'rsatadi.

Arab tilining ilmiy tilga aylanishi ta'lim tizimida ham chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Madrasalarda Qur'on, fiqh va hadis bilan bir qatorda mantiq, falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya kabi fanlar ham o'rgatilgan. Ushbu fanlar bo'yicha asosiy manbalar arab tilida bo'lgani sababli, o'quvchilar avval arab tilini chuqur o'zlashtirgan, so'ngra ilmiy ta'limni olgan. Bugungi kunda arab tili ta'limini o'rgatishda zamonaviy metodikalar va ilg'or tajribalardan foydalanilmoqda. Masalan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida arab tili ta'limini rivojlantirishga oid konferensiyalarda arab tilining tarixiy ro'li, bugungi dolzarbligi va o'qitish metodikasi haqida izlanishlar olib bormoqda. Arab tilining ilm-fan va ta'limdagi ro'li Markaziy Osiyo ilmiy uyg'onishining nafaqat mahalliy, balki dunyo ilm-faniga ham ulkan hissi qo'shgan. Arab tili vositasida Markaziy Osiyo olimlari Sharq va G'arb ilmiy merosini uyg'unlashtira olgan.

Arab madaniyati, ayniqsa, VIII–XII asrlar oralig'ida "Islomning oltin davri" deb nom olgan davrda dunyo ilm-fanining yetakchi kuchiga aylangan. Bu davrda arab tili nafaqat Qur'on tili sifatida, balki falsafa, tibbiyot, matematika,

astronomiya, geografiya, fiqh, adabiyot va tarix yozuvining asosiy vositasi bo'lgan. Ushbu ilmiy yuksalish faqat arab dunyosi bilan chegaralanmagan: Bag'dod, Damashq, Basra, Qohira kabi markazlardan tashqari, Buxoro, Samarqand, Xiva, Marv, Farg'ona kabi Markaziy Osiyo shaharlarida ham arab madaniyatining ta'siri chuqur sezilgan.

Arab madaniyati o'z ichiga nafaqat diniy qadriyatlarni, balki adabiy hayot (she'riyat, maqolat, nasr), me'morchilik (masjidlar, madrasalar, minora va gumbazlar), musiqa (maqom tizimi), kiyinish madaniyati va hatto ovqatlanish madaniyatini ham qamrab oladi. Markaziy Osiyo xalqlari arablarning adabiy merosi, ayniqsa Qur'ondan tashqari Hadis ilmi, arab tilidagi tafsirlar, fiqhiy matnlar va tasavvuf adabiyotidan keng foydalangan. Bu asarlar orqali axloqiy, huquqiy, siyosiy va estetik qadriyatlar shakllandi. Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy kabi shoir va mutasavviflar ham arab adabiy-madaniy doirasida ijod qilgan.

Shuningdek, arab-me'morchilik uslublari ham o'zbek me'morchilik maktabiga ta'sir qilgan. Samarqanddagi Registon ansambli, Buxorodagi Mir Arab madrasasi yoki Xivadagi Ichan Qal'a yodgorliklari bunga misol bo'la oladi.

Bugungi global dunyoda O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi madaniy munosabatlar yangi bosqichga chiqmoqda. Bir necha asosiy yo'nalishda bu aloqalar chuqurlashmoqda. Masalan, ta'lim va ilm-fan aloqalari bo'yicha. O'zbekistonning ko'plab talabalari Misrning Al-Azhar universiteti, Saudiya Arabistonining "Umm al-Quro", Medina islomiy universitetlarida va BAA dagi bir nechta islomiy markazlarda tahsil olmoqda. O'zbekistondagi Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mir Arab madrasalari kabi ilmiy markazlar bilan arab davlatlarining hamkorligi mustahkamlanmoqda.

Madaniy diplomatiya bo'yicha ham O'zbekiston katta yutuqlarga erishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi orqali BAA, Qatar, Saudiya Arabistoni, Quvayt kabi davlatlar bilan madaniy festivallar, ko'rgazmalar va ekspeditsiyalar o'tkazmoqda. 2021-yilda BAAda bo'lib o'tgan EXPO ko'rgazmasida O'zbekistonni arab olamida katta qiziqishini uyg'otdi. Islom madaniyatini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonning islomiy madaniyatni tiklashga bo'lgan e'tibori, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hadis ilmi akademiyasi va Toshkentdagi "Islom sivilizatsiyasi markazi" faoliyati orqali ham namoyon bo'lmoqda. Bu institutlar arab dunyosidagi olimlar bilan ilmiy hamkorlik olib bormoqda. Bundan tashqari Iqtisodiy va turizm aloqalari ham kengayib bormoqda. Arab davlatlaridan kelayotgan investorlar O'zbekiston madaniy merosini asrash va restavratsiya qilish, madaniy turizm infratuzilmasini rivojlantirishga hissa

qo'shmoqda. BAA, Saudiya Arabistoni va Qatar O'zbekiston turistik loyihalariga sarmoya kiritmoqda.

Xulosa

Arab tili Markaziy Osiyo xalqlari uchun nafaqat diniy muloqot vositasi, balki chuqur ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilgan. VIII–XII asrlarda arab tili ilm-fan va falsafaning universal tili sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan olimlarning katta qismi o'z ilmiy merosini aynan shu tilda yaratgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Farg'oni kabi mutafakkirlar arab tilida yozgan asarlari orqali Sharq va G'arb ilmiy muhitini bog'lovchi ko'prikkaga aylanishgan. Arab tilining ta'limdagi o'rni ham beqiyosdir. O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi madrasa va kutubxonalar faoliyatida arab tili asosiy o'quv tili sifatida qo'llanilgan, diniy va dunyoviy fanlar arab tilida o'rgatilgan. Bu, o'z navbatida, xalq orasida savodxonlikning kengayishiga, ilm-fan va tafakkur rivojiga olib kelgan. Ayniqsa, arab yozuvining keng qo'llanishi natijasida ko'plab qo'lyozmalar yaratilib, hozirgacha yetib kelgan boy ilmiy-madaniy meros shakllangan. Shuningdek, arab madaniyati orqali Markaziy Osiyoga kirib kelgan falsafiy, adabiy va estetik g'oyalar mahalliy an'analar bilan sintezlashib, boy va betakror sivilizatsiyani vujudga keltirdi. Bu jarayonda arab tili nafaqat tashqi ta'sir vositasi, balki ichki madaniy taraqqiyotning ham bir qismi sifatida qatnashgan. Bugungi kunda ham arab tili va madaniyati Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston bilan arab davlatlari o'rtasidagi ta'limiy, ilmiy va madaniy aloqalar rivojida muhim o'rin tutmoqda. Arab dunyosidagi universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik, arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi, o'zaro madaniy tadbirlar tashkil etilishi bu uzviy tarixiy aloqalarning zamonaviy ko'rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. TURG'UNBOYEV NURIDDINJON MUHAMMADJON O'G'LI (2023). ARABLARNING TARIXI VA XALQ SIFATIDA SHAKILLANISHI. ARAB TILI TARIXI VA UNING GRAMMATIKASI ASOSLARI. *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*. [online] doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8374826>.
2. Risolat Abdushukurova (2025). *BAA O'zbekistonda Arab tili ta'limi va madaniyati markazini ochishi mumkin*. [online] Daryo.uz. Available at: <https://daryo.uz/content/post?day=04&month=04&slug=baa-ozbekistonda-arab-tili-talimi-va-madaniyati-markazini-ochishi-mumkin&year=2025>

3. oyina.uz (2023). *Markaziy osiyolik allomalarning Yevropa Renessansiga ta'siri beqiyos – G'arbning ikki olimidan haqqoniy e'tirof*. [online] Oyina.uz. Available at: <https://oyina.uz/uz/article/1619?>
4. Ruzmatova, G., Pulatova, D. and Muxamedov, A. (n.d.). *NODAVLAT OILY TA'LIM TASHKILOTI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING TABIIY-ILMIY, IJTIMOY-FALSAFIY MEROSI DARSLIK 70220501 -Falsafa (sohalar bo'yicha) Toshkent -2025*.
5. Markaziy Osiyo Xalqlari Tarixi, Madaniyati va etnografiyasi ... (n.d.-a). https://www.researchgate.net/publication/350706207_Markaziy_Osiyo_xalqlari_tarixi_madaniyati_va_etnografiyasi_muammolari
6. Pulatova, M.R. (2025). THE IMPORTANCE OF LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS IN TEACHING ARABIC. *Oriental Journal of Philology*, 05(03), pp.230–237. doi: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-26>.
7. АЗИМОВА Н. МАДАНИЯТЛАР ҚИЁСИ ВА УНИНГ ТАРЖИМАДА АКС ЭТТИРИЛИШИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1-2. – С. 279-282.
8. Azimova N. S. The Emergence of The Stylistics of The Arabic Language //Current Research Journal of Philological Sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 08. – С. 22-25.
9. Azimova N. S. Analysis of the development, scale and nationality of translations of literary works into Arabic //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2025. – Т. 7. – №. 05. – С. 71-73.
10. Azimova, N. S. (2024). TA'LIM MUASSASASIDA NASRIY ASARLARNI O'QITISHDA O'QITUVCHINING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(25), 47-51.
11. Azimova, N. S. (2021). Oliy o'quv yurt talabalari o'rtasida millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish. *Молодой ученый*, (28), 214-217.
12. Abdunabiev, S. B. (2023). Terminology in Arabic linguistics. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 285-290.